



**BUXORO
DAVLAT
TEXNIKA
UNIVERSITETI**



**Óbuda
University**



**INTI
International University**
YOUR FUTURE BUILT TODAY



**“TIQXMMI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
“TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA
AGROEKOTIZIMLAR BARQARORLIGINING DOLZARB
MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-
TEXNIKAVIY ANJUMANINI MAQOLALAR TO‘PLAMI
29-30 SENYABR 2025-YIL**

**BUKHARA STATE TECHNICAL UNIVERSITY
“ACTUAL PROBLEMS OF THE STABILITY OF AGRO-ECOSYSTEMS IN
THE EFFECTIVE USE OF NATURAL RESOURCES” MATERIALS OF
INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRAKTIKAL CONFERENCE
SEPTEMBER 29-30, 2025**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УСТОЙЧИВОСТИ АГРОЭКОСИСТЕМ В
ЦЕЛЯХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ
РЕСУРСОВ» МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
29-30 СЕНТЯБРЯ 2025 Г.**

ISBN: 978-9910-764-57-1

UO‘K: 631.95:502.131.1(575.1)

BBK: 65.9(5O‘zi)-18

Tabiiy resurslardan samarali foydalanishda agroekotizimlar barqarorligining dolzarb muammolari / [Matn]: Ilmiy-texnikaviy anjuman / Buxoro : “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025. - 294 b.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanishda agroekotizimlar barqarorligining dolzarb muammolari (2025-yil 29-30 sentyabr) - 294 bet. Buxoro davlat texnika universiteti, 2025.

Tashkiliy qo‘mita

Biologiya fanlari falsafa doktori, dots. S.R.Asatov - rais

Texnika fanlari falsafa doktori, dots. Sh.Y.Sattorov – rais o‘rinbosari

Qishloq xo‘jalik fanlari falsafa doktori, dots. Sh.B.Adizov – mas‘ul kotib

Dasturiy qo‘mita

S.R.Asatov - dotsent

Sh.Y.Sattorov- dotsent

Sh.B.Adizov – dotsent

F.R.Xamidov – professor

F.Sh.Xudoyberdiyev – professor

E.Q.Karimov – dotsent

J.J.Pirimov – dotsent

Mazkur to‘plam 2025-yil 29-30 sentyabr kunlari Buxoro davlat texnika universitetida o‘tkazilgan **“TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA AGROEKOTIZIMLAR BARQARORLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman materiallarini o‘z ichiga oladi.

Konferensiya materiallari fan va texnologiya sohasidagi so‘nggi yutuqlarga asoslangan bo‘lib, ushbu maqolalar yoshlarning intellektual salohiyatini kengaytirishga va ularni ilmiy tadqiqotlarga undashga xizmat qiladi degan umiddamiz.

To‘plam Buxoro davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik kengashi tomonidan chop etish uchun tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-764-57-1

UO‘K: 631.95:502.131.1(575.1)

KBK: 65.9(50‘zi)-18

Topical Issues of Agroecosystem Sustainability in the Efficient Use of Natural Resources / [Text]: Scientific and Technical Conference / Bukhara: “BUKHARA DETERMINANT” LLC Kamolot Publishing House, 2025. — 294 p.

Organizing Committee

Doctor of Philosophy in Biological Sciences, Assoc. Prof. S.R.Asatov - Chairperson

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Assoc. Prof. Sh.Y.Sattorov – Deputy Chairperson

Doctor of Philosophy in Agricultural Sciences, Assoc. Prof. Sh.B.Adizov – Executive Secretary

Program Committee

Assoc. Prof. S.R.Asatov

Assoc. Prof. Sh.Y.Sattorov

Assoc. Prof. Sh.B.Adizov

Prof.F.Sh.Xudoyberdiyev

Prof.F.R.Xamidov

Assoc. Prof. E.K.Karimov

Assoc. Prof. J.J.Pirimov

This collection includes materials from the international scientific - texnikal conference ***“ACTUAL PROBLEMS OF THE STABILITY OF AGRO-ECOSYSTEMS IN THE EFFECTIVE USE OF NATURAL RESOURCES”*** held on september 29-30, 2025, at the Bukhara state technical university.

The materials are based on the latest achievement in science and technology. We hope that these articles will contribute to expanding the intellectual potential of the youth and stimulate their scientific research.

The collection is recommended for publication by the Scientific and Technical Council of the Bukhara state technical university

ISBN: 978-9910-764-57-1
UO‘K: 631.95:502.131.1(575.1)
КВК: 65.9(50‘zi)-18

Эффективное использование природных ресурсов в обеспечении устойчивости агроэкосистем: актуальные проблемы / [Текст]: Научно-техническая конференция / Бухара : Издательство «Камолот» ООО «БУХАРСКИЙ ДЕТЕРМИНАНТ», 2025. — 294 с.

Актуальные проблемы устойчивости агроэкосистем при эффективном использовании природных ресурсов (29-30 сентября 2025 год) – 294 -стр.: Бухарский государственный технический университет, 2025.

Организационный комитет

Доктор философии биологических наук С.Р.Асатов – председатель
Доктор философии технических наук Ш.Я.Сатторов– зам.председателя
Доктор философии по сельскохозяйственных наук Ш.Б.Адизов – ответственный секретарь

Программный комитет

С.Р.Асатов - доцент
Ш.Я.Сатторов- доцент
Ш.Б.Адизов – доцент
Ф.Р.Хамидов – профессор
Ф.Ш.Худойбердиев – профессор
Э.К.Каримов – доцент
Ж.Ж.Пиримов – доцент

В сборник включены материалы международной научно-практической конференции **«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УСТОЙЧИВОСТИ АГРОЭКОСИСТЕМ ПРИ ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ»** который проводился 29-30 сентября 2025 года в Бухарском государственном техническом университете.

Материалы основаны в последних достижениях науки и технологии, надеемся что эти статья по своему значению помогут расширить интеллектуальный потенциал молодежи и стимулировать их научные исследования.

Сборник рекомендован к печати научно-техническим советом Бухарской государственной техническим университетом.

MUNDARIJA

I BO‘LIM. YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

AVTOMOBIL YO‘LLARI DAVLAT KADASTRINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. <i>Asatov Sayitkul Rahimberdiyevich, Ibragimova Madinabonu Mirzaaliyevna</i>	3
QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARNING YER FONDI TOIFASINI O‘ZGARTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. <i>Qadirov Abduxalil Ro‘zmahammatovich, Davronov Obid O‘ktamovich</i>	7
QISHLOQ XO‘JALIK FOYDALANISHDAN CHIQIB KETGAN SUG‘ORILADIGAN YERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. <i>Jurayev Asror Rustamovich</i>	11
QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINING KADASTR BAHOSINI ANIQLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR HAMDA ULARNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH YO‘NALISHLARI. <i>Muxtorov O‘zbekxon Burxonovich</i>	16
QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINI KADASTR BAHOSI. <i>Muxtorov O‘zbekxon Burxonovich</i>	20
TOSHKENT VILOYATIDA BOG‘DORCHILIK VA TOKCHILIKKA IXTISOSLASHGAN FERMER XO‘JALIKLARINI IQLIM VA TUPROQ SHAROITINI HISOBGA OLIB JOYLASHTIRISH. <i>Xafizova Zulfiya Xolmuratovna, Hamidova Oqila Fayzulloyevna</i>	26
DEHQON XO‘JALIKLARI YERDAN FOYDALANISH FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH. <i>Muqumov A.M. Hamidov F.R.</i>	30
BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA YERGA NISBATAN MULKCHILIK MUAMMOLARI O‘RGANISH. <i>Tursunov Suhrob Ro‘zimurod o‘g‘li</i>	35
QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARNI XATLOVDAN O‘TKAZISHDA ELEKTRON XARITALAR YARATISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH” (QASHQADARYO VILOYATI, MUBORAK TUMANI MISOLIDA). <i>Haqberdiyev A.S.</i>	38
O‘ZBEKISTONDA YER TOIFALARINI O‘ZGARTIRISH JARAYONLARI: ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI. <i>Davronov Obid O‘ktamovich, Qadirov Abduxalil Ro‘zmahammatovich</i>	43
ZAMONAVIY GEODEZIK ASBOBLAR YORDAMIDA YER RESURSLARINI BOSHQARISH VA ELEKTRON KARTASINI YARATISH. <i>Mirzayev Jonibek Oltiyevich</i>	46
YER MONITORING ISHLARINI OLIB BORISHDA KARTOGRAFIK METODLAR ASOSIDA ELEKTRON RAQAMLI KARTALAR YARATISH. <i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o‘g‘li</i>	49
YER KADASTRI SOHASINI YURITISHDA CHET EL TAJRIBALARINI TAHLIL QILISH. <i>Asatov Sayitkul Rahimberdiyevich, Amrullaev Azizjon Anvarovich, Asatov Jasurbek Sayitkulovich</i>	53

yetishtirish va chorvachilikda zamonaviy texnologiyalarning yoʻqligi, tayyorlov, qayta ishlash va savdo tashkilotlarining monopoliyasi, yetishtirilgan mahsulotni sotishdagi qiyinchiliklar, davlat subsidiyalarining miqdori, soliq stavkalarining yuqoriligi, bank kreditlarining mavjud emasligi aksariyat dehqon xoʻjaliklari uchun qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishni amalga oshirish imkoniyatini cheklovchi asosiy muammolar boʻlib qolmoqda.

Dehqon xoʻjaligiining samarali faoliyat koʻrsatishining muhim sharti uni quyidagi yoʻnalishlarda davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashdir: dehqon xoʻjaliklarini tashkil etish uchun teng boshlangʻich shart-sharoitlarni taʼminlash, ular faoliyatining ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini yaratishda moliyaviy yordam koʻrsatish, moddiy-texnika resurslarini lizing shartlarida xarid qilishni kengaytirish; yuqori texnologiyali qishloq xoʻjaligi texnikasini xarid qilish qiymatining bir qismini, mahalliy ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali qishloq xoʻjaligi texnikasini ijara (lizing) shartnomalari boʻyicha olganlik uchun toʻlangan boshlangʻich badallar va yillik lizing toʻlovlarini, qishloq xoʻjaligi texnikasini xarid qilish uchun jalb etilgan kreditlar boʻyicha foiz stavkasini qoplash; qishloq xoʻjaligi texnikasining federal lizing dasturida ishtirok etish; agrar sektorda sugʻurta tizimini takomillashtirish; kadrlar malakasini oshirish va ularni maqsadli tayyorlashni moliyalashtirish; axborot va maslahat xizmatlarini koʻrsatish, grantlar bilan qoʻllab-quvvatlash, oʻsimlikchilik va chorvachilikning ustuvor yoʻnalishlarini rivojlantirish, bu esa mintaqada bandlik va aholi turmush darajasining oshishini taʼminlagan holda oziq-ovqat bozorining turli darajadagi manfaatlarini muvofiqlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston respublikasi qonuni Dehqon xoʻjaligi toʻgʻrisida. Adolat. 2021
2. Ahmedov U.Q. Qishloq joylari uy xoʻjaliklarining rivojlanish istiqbollari (Monografiya) – T.: “Fan va texnologiya”, 2014, 152 bet
3. Зиятдинова, Ф.Г. Российское село в рыночных условиях / Ф.Г. Зият динова, Е.И. Кучаева.- М.: ЮНИТИ: Закон и право, 2008.- 198 с.
4. И. Кудряшов, Ye.B. Нежелъченко. Эффективное развитие крестьянских хозяйств: условия, проблемы, направления. М.: Восход-А, 2007.
5. Кудряшов, В.И. Совершенствование организации сбыта продукции крестьянских (фермерских) хозяйств/ В.И. Кудряшов, С.С. Сушенцова, М.В. Ив лев// Экономика, труд и управление в сельском хозяйстве.- 2009.- № 1. – с. 39-45
6. Малое предпринимательство: управление и организация: - М.,: Дека.- 1997. – 85 с.]
7. Husanov R.X. Qosimov M.CH. Dehqon xoʻjaliklari yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. – T.: “Choʻlpon”, 2000 y, 104-bet
8. Рыбалкин, П. Интенсификация научной деятельности в современных условиях/ П.Рыбалкин, В. Нечаев, В. Ивко// АПК: экономика, управление.- 2003. - №5.- с. 47-52.
9. Солодова В.В., Иванов В.А. К вопросу о сущности крестьянства как социальной общности населения // Объединенный научный журнал. – 2003. - № 8. – с. 67-69
10. Тусков, А.А. Современное состояние дехканских и фермерских хозяйств Пензенской области / А.А. Тусков, Г.В. Трофименко// Аграрная наука.- 2011.- №10. – с. 8-9.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA YERGA NISBATAN MULKCHILIK MUAMMOLARI OʻRGANISH

Tursunov Suhrob Roʻzimurod oʻgʻli - *Qarshi Davlat Texnika Universiteti Melioratsiya va yer kadastrı kafedrasi assistenti*

Anotatsiya. Taʼkidlash joizki, yer umummilliy boylik tushunchasi xalq (millat) boyligi, mulki maʼnosini anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerga nisbatan mulkchilik muammolari oʻrganishga maqolada toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar. Yerdan foydalanish, xususiylashtirish, xususiy mulkchilik, yer tuzish.

Аннотация. Следует отметить, что понятие земли как национального богатства подразумевает богатство, собственность народа (нации). Статья посвящена исследованию проблем права собственности на землю в условиях рыночной экономики.

Ключевые слова. Землепользование, приватизация, частная собственность, землеустройство.

Abstract. It is worth noting that the concept of land as a national wealth means the wealth, property of the people (nation). The article deals with the study of the problems of ownership of land in the conditions of a market economy.

Keywords. Land use, privatization, private ownership, land management.

Kirish Davlatning yer uchastkalaridan oqilona, unumli foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati uning yerga nisbatan tasarruf etish huquqi bilan bogʻliq ravishda amalga oshirilishi lozim. Chunki fuqarolarning har biri yer fondi davlat boshqaruvida bevosita ishtirok eta olmaydi. Qolaversa, umummilliy boʻylik tushunchasi respublika, yaʼni davlat mulki tushunchasini keltirib chiqaradi.

Yer resurslari oʻziga xos, boshqa turdagi mulklarda takrorlanmaydigan xususiyatlariga koʻra alohida huquqiy maqomga ega boʻlishi lozim. Bunday xususiyatlar sirasiga yerning cheklangan tabiiy resurs ekanligi, aholi sonining muntazam ravishda oʻsib borayotganligi sababli yer bilan taʼminlanish muammosining tobora keskin tus olayotganligi, jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida yer uchastkalarining fuqarolik muomalasiga kiritilganligi kabilarni kiritish mumkin. Taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonning mustaqillik yillarida yer uchastkalariga nisbatan mulkiy munosabatlar bozor talablariga mos ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunda boshqa tabiiy resurslardan farqli ravishda yer uchastkalariga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqi oʻrnatildi. Dastlab mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yerga nisbatan ashvoviy huquqlar kimoshdi savdolari asosida sotila boshlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 24 noyabrdagi “Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish toʻgʻrisida”gi Farmoni yer huquqining bunday yangi instituti vujudga kelishiga asos boʻlib xizmat qildi. 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Yer kodeksining 18-moddasida esa Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslar yer uchastkalarini savdo va xizmat koʻrsatish maqsadlarida mulk sifatida realizatsiya qilishlari mumkinligi belgilandi. Shuningdek, diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan, Oʻzbekistonda akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari yer uchastkalaridan mulk huquqi asosida foydalanishlari mumkinligi koʻrsatildi.

Oʻzbekistonda yerlarni xususiylashtirish istiqbollari va uning nazariy jihatlari mahalliy huquq fanida maʼlum vaqtdan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Albatta, hozirgi vaziyatni oldindan aytish mumkin edi, chunki bu jarayon sodir boʻlishi kerak edi. Shunga qaramay, yerga davlat mulki, yer fondi va tabiiy resurslarning milliy merosini davlat tomonidan boshqarish tushunchalari ushbu sohadagi huquqiy munosabatlar haqida ilmiy-nazariy fikr yuritishga turtki beradi. Albatta, ayrim toifadagi yerlarni xususiylashtirishda davlat butun yer fondini boshqarmaydi. Biroq, u oʻzining umumiy boshqaruv faoliyati orqali erdan foydalanishning barcha shakllarida taʼsir koʻrsatadi. Bizningcha, davlatning yerni boshqarish huquqi va uning maʼmuriy faoliyatini alohida koʻrib chiqish yoki har bir holatni ikkinchisining oqibati deb hisoblash notoʻgʻri. Yerlar xususiylashtirilayotganiga qaramay, Oʻzbekiston agrar davlat boʻlib, qishloq xoʻjaligi asosan sugʻorma dehqonchilikka asoslanganligi sababli mamlakatimizda yerga davlat mulki huquqini saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, yer tuzish ishlari va davlat yer kadastrini yuritish kabi yerdan foydalanish sohasidagi davlat vakolatlari barcha mulk shaklidagi yerlarga ham tatbiq etiladi.

Muhokama va natijalar Yerga nisbatan umumilliy boʻylik tushunchasi respublika, yaʼni davlat mulki tushunchasini keltirib chiqaradi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan Oʻzbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasida yerga nisbatan umummilliy boylik tushunchasining qo‘llanilishi to‘g‘rimikin, degan savol kelib chiqishi tabiiy. Bizningcha, asosiy qonunimizda yerga nisbatan umummilliy boylik huquqiy maqomining belgilanishiga quyidagi omillar sabab bo‘la oladi:

birinchidan, yer boyliklari butun jamiyat timsolida hozirgi va kelajak avlodlarga tegishli bo‘ladi;

ikkinchidan, yer mamlakat hududi bo‘lganligi sababli fuqarolarning unda yashashi, joylashishi insonlarning yerdan foydalanishdagi tabiiy huquqini anglatadi;

uchinchidan, yer resurslaridan oqilona va unumli foydalanish mamlakatning kelajagini belgilab beradi, ya‘ni xalq xo‘jaligining, iqtisodiyotning rivojlanishiga va shu orqali fuqarolarning turmush darajasi o‘shishiga, moddiy farovonligi oshishiga olib keladi;

to‘rtinchidan, davlat jamiyatni va davlatning o‘zining manfaatlarini ko‘zlab barcha yer uchastkalaridan foydalanishni nazorat ostiga oladi;

beshinchidan, mamlakatimizda xususiy lashtiriladigan yer uchastkalari yer fondining juda kam miqdorini tashkil etadi. Qolaversa, yerlarning huquqiy holati davlatning fuqarolik muomalasida bo‘ladigan boshqa mulklari huquqiy holatidan farq qiladi.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi paytlarda milliy huquq tizimimizda yerga nisbatan xususiy mulkchilikni rivojlantirishning istiqbollari xususida ilmiy-nazariy mushohada asosidagi turli munozarali fikrlar, qarashlar bildirilmoqda. Bizningcha, bu borada O‘zbekiston davlati olib borayotgan siyosat to‘g‘ri bo‘lib, unda faqat ba‘zi toifadagi yerlarga nisbatan xususiy mulkchilik tartibi joriy qilinmoqda. E‘tiborlisi shundaki, mamlakatimizda yerga nisbatan xususiy mulk huquqi joriy etilishidan avval yerga bo‘lgan ashyoviy huquqlar mahalliy hokimiyat organlari tomonidan kimoshdi savdolarida sotila boshlangan edi. Bizningcha yer-huquqiy islohotlarining hozirgi bosqichida yuqorida keltirilgan farmonda nazarda tutilgan yer uchastkalari to‘g‘ridan to‘g‘ri oldi-sotdi ob‘ekti bo‘lish orqali fuqarolik muomalasiga kiritilishi va bu hol yer, fuqarolik qonunchiligida o‘z ifodasini topishi lozim. Ya‘ni, endilikda yer uchastkalariga bo‘lgan ashyoviy huquqlar emas, balki yer uchastkalarining o‘zi xususiy mulk sifatida oldi-sotdi qilinishi lozim. Bunda, bizningcha fuqarolar va yuridik shaxslarning foydalanishida bo‘lmagan davlat tasarrufidagi yerlar mahalliy hokimiyat organlari tomonidan kimoshdi savdolarida, ularning mulkida bo‘lgan yer uchastkalari esa mahalliy hokimiyat organlari orqali yer uchastkasining oldi-sotdisiga oid shartnomani tuzish yo‘li bilan sotilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan farmoni asosida hozirda tegishli davlat organlari tomonidan ishlab chiqilayotgan Nizomda ushbu qoida o‘z ifodasini topib, fuqarolik qonunchiligiga yer uchastkalarining oldi-sotdisiga oid alohida shartnoma turi haqidagi moddalar kiritilsa, milliy huquq tizimimizdagi yerga nisbatan xususiy mulkchilikka oid normalar ancha takomillashgan bo‘lard.

Yer uchastkalarining oldi-sotdisi haqida gap ketganda tabiiy savol tug‘iladi. Xo‘sh, oldi-sotdi ob‘ekti bo‘lgan yer uchastkasi hadya, garov, ayirboshlash ob‘ekti bo‘lishi mumkinmi? Axir xususiy mulkdor o‘z mulkini har qanday ma‘muriy to‘siqlarsiz tasarruf etish huquqiga ega-ku. (Biz yerning tabiiy holatiga salbiy ta‘sir etuvchi harakatlarni sodir etishni nazarda tutmayapmiz, albatta.) Shu sababli bizningcha, yer qonunchiligidagi yer uchastkalarini oldi-sotdi, hadya qilish, ayirboshlash, garovga qo‘yishni man qiluvchi modda o‘zgartirilishga muhtoj. Chunki, yerlarni xususiy lashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘tishning navbatdagi bosqichida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jarayon ekan, u xususiy yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga to‘liq kiritishni talab etadi. Aksincha, joriy qonunchilikka xususiy yer uchastkalarini oldi-sotdi qilish barobarida ularni hadya qilish, ayirboshlash, garovga qo‘yish mumkinligi haqida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi lozim.

Xulosa. Hozirgi kunda mamlakatimizda yerga nisbatan xususiy mulkchilik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimida muayyan huquqiy bo‘shliq mavjud. Buning salbiy oqibatlari huquqni qo‘llash amaliyotida namoyon bo‘lish bilan birga yer-huquqiy nazariy masalalarida turli chalkash fikrlar, qarashlar va biryoqlama yondashuvlarning ko‘payishiga

sabab bo'lmogda. Nazarimizda, ushbu bo'shliqni to'ldirishda bozor munosabatlariga bizdan avvalroq qadam qo'ygan xorijiy davlatlarning, ayniqsa huquq tizimi bizga yaqin bo'lgan mamlakatlarning tajribalari o'rganilishi, zarur hollarda ulardan foydalanilishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzaeva, S. (2020). Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. Toshkent: Ekologiya nashriyoti.
2. Smith, J. (2018). Climate Change and Global Warming. New York: Environmental Press.
3. White, R., & Green, J. (2019). Sustainable Development and the Role of Earth. London: Earth Institute.

QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI XATLOVDAN O'TKAZISHDA ELEKTRON XARITALAR YARATISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH” (QASHQADARYO VILOYATI, MUBORAK TUMANI MISOLIDA)

Haqberdiyev A.S - *“O'zdiyverloyiha” DILI instituti* *Mustaqil doktranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ArcGIS dasturi yordamida yer monitoringini yuritish uchun elektron raqamli kartasini yaratish, sun'iy yo'ldoshlardan olingan kosmik suratlarni fazoviy bog'lash, tahlil qilish va rastrlarni ranglar kesimida tus olishi hamda rastrning kerakli sohalarini qirqib olish kabi masalalar ko'rib chiqilishi talab etiladi.

Kalit so'zlar. ArcGIS, geoaxborot taxlil, qatlam, ishchi konfiguratsiya, geokodlash, proektsiya, elektron raqamli kartalar, monitoring kartalar, ArcMap, ArcCatalog, rastr, fotoplan, buffer.

Аннотация. В статье рассматриваются такие вопросы, как создание электронной цифровой карты для мониторинга земель с использованием программы ArcGIS, пространственная привязка и анализ спутниковых снимков, а также преобразование растров в цветные сечения и кадрирование необходимых участков растра.

Ключевые слова. ArcGIS, геоинформационный анализ, слой, рабочая конфигурация, геокодирование, проекция, электронные цифровые карты, карты мониторинга, ArcMap, ArcCatalog, растр, фотокарта, буфер.

Annotation. This article addresses the creation of electronic digital maps for land monitoring using the ArcGIS software. It focuses on spatial referencing of satellite imagery, analysis of data, raster classification by color, and clipping of required raster areas.

Keywords. ArcGIS, geoinformation analysis, layer, working configuration, geocoding, projection, electronic digital maps, monitoring maps, ArcMap, ArcCatalog, raster, photomap, buffer.

Kirish Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarini xatlovdan o'tkazish ishlarini tavsiflash, yerlarni inventarizatsiya qilish va elektron raqamli xaritasini zamonaviy dasturlar yordamida yaratish. Qishloq xo'jalik yerlari kartasini tuzishda masofadan zondlash materiallaridan foydalanishning hozirgi darajasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, qishloq xo'jaligi yerlarining elektron xaritasini tuzishda zamonaviy dasturlar, jumladan GAT oilasiga tegishli ArcGIS dasturining afzalliklarini tavsiflash mumkin. Masofadan zondlash, GPS/GLONASS, WEB-GIS, Ortofotoplan, Uchuvchisiz uchish aparati, elektron xarita O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko'ra –yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Ular o'zining hududi, iqlimi, tuproq qatlami, relyefi, gidrogeologik sharoitlari va gidrografik, o'simlik dunyosi va boshqa belgilari bilan tavsiflanadi, xalq xo'jaligi tarmoqlarini va aholini joylashtirish uchun asos, qishloq va o'rmon xo'jaliklarida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi “Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi faoliyatini